

TOHIR MALIK ASARLARIDA EGASI UMUMLASHGAN VA SHAXSI
NOMA'LUM GAPLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Xoshimova Husnida Dilshodbek qizi

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada ega nima ekanligi, uning qanday turlari mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, har bir qoidadan so'ng keltirilgan namuna Tohir Malikning qalamiga mansub asardan olingan. Shu orqali nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik borasida Tohir Malikning so'z qo'llash mahoratiga ham baho berish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Tohir Malik, ega, egali gap, egasiz gap, shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, so'z gap, atov gap

Abstract. The article contains information about what is possessive, what are its types, and the example given after each rule is taken from a work by Tahir Malik. Through this, it will be possible to evaluate Tahir Malik's skill in using words not only in terms of linguistics, but also in literary studies.

Key words: Tahir Malik, possessive, possessive sentence, possessive sentence, indefinite sentence, generalized sentence, noun phrase, noun phrase

Tohir Malik (asl ismi Hobilov Tohir Abdumalikovich) — taniqli o'zbek yozuvchisi. O'zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri, ma'rifat arbobi. „Do'stlik“ ordeni va „O'zbekiston xalq yozuvchisi“ faxriy unvoni sohibi. 1946-yilning 27-dekabrda Toshkent shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Birinchi yirik asari — „Hikmat afandining o'limi“, „Zaharli g'ubor“, „Falak“, „Somon yo'li elchilari“, „Chorrahada qolgan odamlar“, „Bir ko'cha, bir kecha“, „Alvido, bolalik“, „So'nggi o'q“, „Ov“ kabi ilmiy-fantastik, sarguzasht qissalari mashhur. Tohir Malik shu va shu kabi ko'plab asarlar yaratgan. Biz quyida Tohir Malikning « Falak» nomli asaridan misollarni ko'rishimiz mumkin.

Ega — gapning bosh bo'laklaridan biri; gapni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ega fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatadi, shu jihatdan kesim bilan o'zaro yaqin bog'langan. Ega, odatda, kesim orqali, kesim esa ega orqali, bir-biriga nisbat berish bilan belgilanadi. Grammatik jihatdan ega boshqa bo'laklarga nisbatan hokim vaziyatni egallaydi (ba'zi ilmiy adabiyotlarda mutlaq hokim sifatida gapning kesimi ko'rsatiladi). Ega vazifasida kelgan so'z egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qila oladi va bosh kelishlik shaklida qo'llanadi. U ko'pincha ot, olmosh, otlashgan so'z va so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Ega, asosan, kesimdan avval keladi; bunday so'z tartibi eganing grammatik belgilaridan biridir. Ba'zan kesimdan keyin ishlatilishi ham mumkin; bu hodisa inversiya deyiladi. Ega ba'zan birgina so'zdan,

ba'zan esa bir necha so'zdan, ya'ni sintaktik birlikdan iborat bo'ladi. Ega gapda har doim biror so'z yoki so'zlar birikmasi bilan ifodalanishi shart emas. Ba'zi gaplarda ega tushib qolishi, yashirin bo'lishi mumkin. Eganing gapda qo'llanishi yoki qo'llanmasligi gapning mantiqiy mundariyasi, grammatik shakli va nutq uslubi bilan bevosita bog'liq. Ega kim? nima? qayer? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi gapning bosh bo'laklaridan biri sanalib, gapni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ega fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatadi. Gapning grammatik asosi ega va kesimdan iborat bolsa egali gaplar, faqat kesim qismidan iborat bolsa egasiz gaplar deyiladi. Gaplar eganing ifodalanishi va ifodalanmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- egali gaplar;
- egasiz gaplar);

Egasiz gaplar o'z ichida ikkiga bo'linadi:

1. Shaxsi ma'lum gaplar. Egasi (shaxsi) ma'lum gaplarda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shas-son shaklidan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi 1- yoki 2-shaxs shaklida bo'ladi. Masalan,

Yelkasidagi beqasam to'nni oldida, hayrat bilan binoga tikilib qoldi (U)

Shahriston etagidagi xonaqohni qarang (Siz)

2. Egasi umumlashgan gap. Egasi (shaxsi) umumlashgan gapda kesimi 2-shaxs shaklida bo'lsa ham, ega real ifodalanmaydi, ko'pincha maqollarda qo'llaniladi, mazmunan uchala shaxsga taalluqli bo'ladi. Masalan,

Har banda o'z gunohi uchun o'zi istig'for aytmagi durust.

Ilmdan yuz o'girib, o'zini juvonmarg qilmoq gunoh emasmi?

Egasiz gaplarda ega umuman bo'lmaydi. Kesimdagi shaxs-son qo'shimchalari orqali egani tiklab bo'lmaydi.

Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimning eng muhim belgisi uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qigidir. Shaxsi noma'lum gap egasiz gapning uch turi (shaxsi noma'lum gap, atov gap, so'z gap)ning bir turi hisoblanadi. Masalan,

Ilm haqida gapirganda o'zini erkin tutish kerak.

Barcha xonadonlarda Shamsibekning zavjalari tikkan falak (keyinchalik palak) bo'lishi shart.

Yosh umrlarini xazon qilish mumkin emas. U gunohi azim sanaladi.

Atov gaplarda narsa buyumning mavjudligi yoki voqea-hodisa atash yo'li bilan ifodalanadi. Atov gaplar so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum, davr yoki joyni gavdalantirishga xizmat qiladi. Atov gapdan keyin uning mazmunini izohlovchi gap beriladi: Qish. Sovuq shamol esyapti. Atov gap yig'iq va yoyiq shaklda bo'ladi. Yig'iq atov gaplar bitta so'zdan iborat bo'ladi: vahor. Dalalarda ish qizg'in.

Yoyiq atov gaplar aniqlovchi bilan kengayib keladi: Karimlarning uyi. Hech kim ko`rinmaydi.

Yoyiq atov gaplar kengaygan harakat nomli birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin: Sokin qishloq ko`chalarida sayr qilish. Bu mening bolalikdan seBimli mashg`ulotim.

Atov gaplar asosan badiiy va publitsistik (ommabop) uslublarda qo`llaniladi. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.

Bir so`zdan iborat bo`lib, tarkibga ajrala olmaydigan, boshqa so`zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo`lmagan gaplar so`z – gaplardir. So`z – gaplar sodda gapning alohida bir ko`rinishi sanaladi. Ular tasdiq, inkor, so`roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, asosan dialogli matnlarda qo`llanadi. Masalan:

Sog`ligingiz yaxshimi? -Qabulga birga kiramizmi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne`matov H. va b. O`zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet, 2000.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -T., 2010. O`quv qo`llanma. O`zMU IK tas.
3. Mengliyev B. O`zbek tilining struktur sintaksisi –Qarshi., 2003.
4. O`zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. - T.: Fan, 1975. - 548 b.
5. S.Raximov, B.Umirqulov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O`qituvchi, 2003. Darslik. O`z R OTV tas.
6. N.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O`qituvchi, 2005. Darslik. O`z R OTV tas.
7. Omonturdiyev J. Omonturdiyev A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Termiz, 2012.